O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI BANKLAR TIZIMI BA STATISTIK TAHLILI

Ziyodullayeva Adiba
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
“Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari” fakulteti
3-bosqich talabasi.
Ilmiy rahbar: Akbarova Barno Shuxratovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ANNOTATSIYA.

Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi bank tizimining tuzilishi, uning iqtisodiyotdagi o‘rni hamda rivojlanish tendensiyalari tahlil qilingan. Bank tizimining ikki pog‘onali modeli, ya’ni Markaziy bank va tijorat banklari faoliyati yoritilgan. Shuningdek, bank aktivlari, kredit qo‘yilmalari, depozitlar hajmi kabi asosiy statistik ko‘rsatkichlar asosida tizimning hozirgi holati baholangan. Mazkur maqolaning maqsadi O‘zbekiston Respublikasi bank tizimini har tomonlama o‘rganish, uning asosiy ko‘rsatkichlarini statistik tahlil qilish hamda mavjud muammolar va rivojlanish istiqbollarini aniqlashdan iborat.Maqolada bank tizimida olib borilayotgan islohotlar, xususan raqamlashtirish jarayonlari va xususiy sektor ulushini oshirish masalalari ham ko‘rib chiqilgan. Statistik tahlil natijalari bank tizimining barqaror rivojlanayotganini hamda uning samaradorligini oshirish uchun zamonaviy yondashuvlar muhim ekanligini ko‘rsatadi.

Kalit so'zlar: O‘zbekiston bank tizimi, tijorat banklari, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki, bank aktivlari, kredit qo‘yilmalari, depozitlar, statistik tahlil, moliyaviy barqarorlik, bank islohotlari, raqamli bank xizmatlari, kapital yetarliligi, likvidlik, iqtisodiy o‘sish, bank sektori rivojlanishi.

АННОТАЦИЯ.

В данной статье проанализированы структура банковской системы Республики Узбекистан, её роль в экономике, а также тенденции

развития. Освещена двухуровневая модель банковской системы, включающая Центральный банк и коммерческие банки. Кроме того, на основе основных статистических показателей, таких как банковские активы, кредитные вложения и объем депозитов, оценено текущее состояние системы.

Целью данной статьи является всестороннее изучение банковской системы Республики Узбекистан, статистический анализ её основных показателей, а также выявление существующих проблем и перспектив развития.

В статье также рассмотрены проводимые в банковской системе реформы, в частности процессы цифровизации и вопросы увеличения доли частного сектора. Результаты статистического анализа показывают, что банковская система стабильно развивается, а для повышения её эффективности важны современные подходы.

Ключевые слова: банковская система Узбекистана, коммерческие банки, Центральный банк Республики Узбекистан, банковские активы, кредитные вложения, депозиты, статистический анализ, финансовая стабильность, банковские реформы, цифровые банковские услуги, достаточность капитала, ликвидность, экономический рост, развитие банковского сектора.

ABSTRACT.

This article analyzes the structure of the banking system of the Republic of Uzbekistan, its role in the economy, and its development trends. The two-tier banking model, consisting of the Central Bank and commercial banks, is described. Additionally, the current state of the system is assessed based on key statistical indicators such as bank assets, loan portfolios, and deposit volumes.

The purpose of this article is to comprehensively study the banking system of the Republic of Uzbekistan, conduct a statistical analysis of its main indicators, and identify existing problems and development prospects.

The article also examines ongoing reforms in the banking system, particularly digitalization processes and the increasing share of the private sector. The results of the statistical analysis indicate that the banking system is developing steadily, and modern approaches are essential for improving its efficiency.

Keywords: Uzbekistan banking system, commercial banks, Central Bank of the Republic of Uzbekistan, bank assets, loan portfolios, deposits, statistical analysis, financial stability, banking reforms, digital banking services, capital adequacy, liquidity, economic growth, banking sector development.

KIRISH.

O‘zbekiston Respublikasi bank tizimi mamlakat iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Banklar moliyaviy resurslarni shakllantirish, ularni iqtisodiyot tarmoqlari o‘rtasida taqsimlash hamda aholi va tadbirkorlik subyektlariga xizmat ko‘rsatishda asosiy vositachi vazifasini bajaradi. So‘nggi yillarda bank tizimini isloh qilish, raqamlashtirish va xalqaro standartlarga moslashtirish borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, 2017–2024 yillar davomida bank-moliya sohasini modernizatsiya qilish, uning barqarorligini oshirish va xalqaro standartlarga moslashtirish bo‘yicha keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirildi.

O‘zbekiston Respublikasida bank tizimini isloh qilish va rivojlantirish borasida Shavkat Mirziyoyev tomonidan qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, 2020-yil 12-maydagi PF-5992-sonli “2020–2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmon bank sektorini kompleks rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilab berdi. Mazkur farmonga muvofiq, bank tizimida davlat ulushini bosqichma-bosqich kamaytirish, xususiy banklar faoliyatini kengaytirish, bank xizmatlarini modernizatsiya qilish hamda kreditlash jarayonlarini bozor mexanizmlari asosida tashkil etish vazifalari belgilandi. Shuningdek, banklarning moliyaviy barqarorligini oshirish, xalqaro moliyaviy

hisobot standartlarini joriy etish va risklarni boshqarish tizimini takomillashtirish muhim yo‘nalish sifatida qayd etildi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI.

Zamonaviy bank tizimi nazariyasining asosini moliyaviy vositachilik konsepsiyasi hamda banklarning iqtisodiyotdagi resurslarni samarali taqsimlashdagi roli tashkil etadi. Ushbu yondashuv bank sektorining barqarorligi va samaradorligini baholashda muhim nazariy asos sifatida qo‘llaniladi. Bank tizimining rivojlanishi va uning iqtisodiy o‘sishga ta’siri ko‘plab ilmiy tadqiqotlarda asoslab berilgan

O‘zbekiston bank tizimi kontekstida so‘nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlar sektorni isloh qilish jarayonida mavjud institutsional muammolar va rivojlanish tendensiyalarini ochib bermoqda. Xususan, mahalliy tadqiqotchilar tomonidan bank sektorida davlat ulushining yuqoriligi, kredit resurslarining markazlashgan holda taqsimlanishi hamda moliyaviy bozorlarning yetarli darajada rivojlanmaganligi kabi omillar tahlil qilingan. Bu holat banklar faoliyatining samaradorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatishi qayd etiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Mazkur tadqiqotda O‘zbekiston Respublikasi bank tizimining rivojlanish holatini baholash va uning asosiy ko‘rsatkichlarini statistik tahlil qilish uchun kompleks yondashuvdan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida nazariy va empirik usullar uyg‘unligi ta’minlandi.

Tadqiqotning nazariy asosini bank tizimi, moliyaviy vositachilik va pul-kredit siyosatiga oid ilmiy qarashlar tashkil etadi. Shuningdek, bank sektorini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar, jumladan O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki materiallari hamda davlat tomonidan qabul qilingan strategik dasturlar o‘rganildi.

Empirik tahlilni amalga oshirishda statistik ma’lumotlardan keng foydalanildi. Xususan, bank aktivlari, kredit qo‘yilmalari, depozitlar hajmi va

boshqa makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar dinamikasi o‘rganildi. Ma’lumotlar asosida quyidagi usullar qo‘llanildi:

Statistik tahlil usuli – bank tizimining asosiy ko‘rsatkichlari o‘sish sur’atlarini aniqlashda;

Taqqoslash usuli – turli yillar ko‘rsatkichlarini solishtirish orqali rivojlanish tendensiyalarini baholashda;

Dinamik qatorlar tahlili – vaqt o‘tishi bilan ko‘rsatkichlar o‘zgarishini aniqlashda;

Tizimli yondashuv – bank tizimini yaxlit iqtisodiy tizim sifatida o‘rganishda.

Shuningdek, tadqiqotda tahliliy umumlashtirish va mantiqiy xulosa chiqarish usuldan foydalanildi. Bu bank tizimidagi mavjud muammolarni aniqlash, ularni bartaraf etish bo‘yicha ilmiy asoslangan taklif ishlab chiqish imkonini berdi.

Tadqiqotning axborot bazasini rasmiy statistik ma’lumotlar, moliyaviy hisobotlar, ilmiy maqolalar hamda xalqaro tashkilotlar, jumladan Jahon banki materiallari tashkil etadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Pul-kredit siyosatining maqsadi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5877-sonli “Inflyatsion targetlash rejimiga bosqichma-bosqich o‘tish orqali pul-kredit siyosatini takomillashtirish to‘g‘risida”gi Farmoniga asosan inflyatsiya bo‘yicha doimiy maqsad (target) 5 foiz etib belgilangan va ushbu maqsadga erishish vazifasi Markaziy bank zimmasiga yuklatilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki 2020 yildan boshlab pul-kredit siyosatini inflyatsion targetlash rejimi doirasida olib bormoqda.

1-jadval O'zbekiston Respublikasi Markaziy Bankining 2024–2026-yillardagi yillik o'zgarishini ko'rsatadi. Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Markaziy Bankining asosiy saytidan olindi.

1-jadval O'zbekiston Respublikasining yillik inflatsiya darajasi (2024-2026-yillar)

Yillar	Inflatsiya darajasi	O`zgarish,%
2024-yil	8.6	-30
2025-yil	9.9	+15
2026-yil	7.2	-27

1-jadval natijalaridan ko'rinib turibdiki 2024–2026-yillar davomida inflyatsiya darajasi o‘zgaruvchan bo‘lsa-da, umumiy tendensiya pasayish yo‘nalishida shakllangan. 2024-yilda inflyatsiyaning sezilarli darajada kamayishi (8.6% va -30%) narxlar barqarorlashuvi boshlanganini ko‘rsatadi. 2025-yilda esa 9.9% (+15%) ga oshish kuzatilib, bu iqtisodiyotda vaqtinchalik inflyatsion bosim mavjudligini bildiradi.Shunga qaramay, 2026-yilda inflyatsiyaning 7.2% (-27%) gacha pasayishi umumiy makroiqtisodiy vaziyat barqarorlashganini va inflyatsiyani nazorat qilish mexanizmlari samarali ishlayotganini anglatadi.

Moliyaviy statistika.

2-jadval Milliy valyutadagi kreditlar bo‘yicha foiz stavkalarini taqdim etadi

2-jadval Milliy valyutadagi kreditlar bo‘yicha foiz stavkalari (yillik, %, 2024-2026)

Kredit muddati va turi	**2024-yil****		**2025-yil****		**2026-yil**
	Yanvar	**Dekabr**	**Yanvar**	**Dekabr**	**Yanvar**
Jami kreditlar	**24,1**	**22,9**	**23,1**	**22,7**	**22,8**

- 1 yilgacha bo‘lgan kreditlar	22,8	21,3	22,6	22,9	22,8
- 1 yildan yuqori bo‘lgan kreditlar	24,5	23,6	23,3	22,6	22,9
Jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlar	**25,2**	**23,5**	**23,9**	**22,0**	**22,1**
- 1 yilgacha bo‘lgan kreditlar	25,6	27,5	28,2	28,4	28,3
- 1 yildan yuqori bo‘lgan kreditlar	25,1	23,4	23,7	21,9	22,0
Yuridik shaxslarga ajratilgan kreditlar	**22,9**	**22,5**		**23,0**	**23,4**
- 1 yilgacha bo‘lgan kreditlar	22,6	21,1	22,3	22,8	22,6
- 1 yildan yuqori bo‘lgan kreditlar	23,2	23,8	22,5	23,2	24,0

2024–2026-yillar davomida milliy valyutadagi kreditlar bo‘yicha foiz stavkalari umumiy hisobda pasayish va barqarorlashuv tendensiyasini ko‘rsatmoqda. Jami kreditlar bo‘yicha stavkalar 24% atrofidan 22–23% oralig‘iga tushgan bo‘lib, bu kredit resurslarining nisbatan arzonlashayotganini bildiradi.

Bank tizimi daromadlilik ko‘rsatkichlari

3-jadval Bank tizimining 2025-2026-yillar kesimida moliyaviy ko`rsatkichlar taqdim etadi

3-jadval Bank tizimi daromadlilik ko‘rsatkichlari (mlrd)

Bank tizimi daromad va xarajatlari	01.04.2025 y.	01.04.2026 y.
Foizli daromadlar	28 898	35 079
Foizli xarajatlar	20 079	25 196
Foizli marja	**8 819**	**9 882**
Foizsiz daromadlar	16 580	22 781
Foizsiz xarajatlar	5 033	7 540
Operatsion xarajatlar	6 123	7 767
Foizsiz daromad (zarar)	**5 424**	**7 473**
Kredit va lizing bo‘yicha ko‘rilishi mumkin bo‘lgan zararlarni baholash	8 330	8 076
Boshqa aktivlar bo‘yicha ko‘rilishi mumkin bo‘lgan zararlarni baholash	1 821	3 067
Soliq to‘langunga qadar sof foyda (zarar)	4 091	6 212
Foyda solig‘ini to‘lash xarajatlari	672	688
Sof foyda (zarar)	**3 419**	**5 524**

2025–2026-yillar davomida bank tizimining moliyaviy ko‘rsatkichlarida **ijobiy o‘sish tendensiyasi** kuzatilgan. Foizli daromadlar 28 898 dan 35 079 ga

oshib, banklarning kredit operatsiyalaridan tushumlari sezilarli darajada kengayganini ko‘rsatadi.

Foizsiz daromadlar ham 16 580 dan 22 781 ga oshib, banklarning xizmatlar va komissiya faoliyatidan tushumlari kuchayganini bildiradi. Biroq foizsiz xarajatlar va operatsion xarajatlar ham o‘sib, xarajatlar bosimi saqlanib qolgan.

Risk zaxiralari (kredit va boshqa aktivlar bo‘yicha) nisbatan barqaror bo‘lib, bu bank tizimida kredit sifati boshqarilayotganini ko‘rsatadi. Natijada soliq to‘langunga qadar foyda 4 091 dan 6 212 ga, sof foyda esa 3 419 dan 5 524 ga oshgan.

Bank tizimining taqqoslama ko‘rsatkichlari

4-jadval Bank tizimining taqqoslama ko‘rsatkichlari 2025-2026-yillar kesimida taqdim etadi

4-jadval Bank tizimi taqqoslama ko‘rsatkichlari

2026-yil holatiga ko‘ra, bank tizimining umumiy aktivlari 959 442 mlrd so‘mni tashkil etib, majburiyatlarga nisbati 117% ni ko‘rsatmoqda. Bu bank tizimining umumiy moliyaviy barqarorligini anglatadi. Kreditlar hajmi depozitlarga nisbatan yuqori (144%) bo‘lib, banklar faol ravishda kreditlashni kengaytirayotganini bildiradi.

Davlat ulushi mavjud banklar tizimda yetakchi o‘rinni egallab, jami kreditlarning asosiy qismini shakllantirgan. Ushbu banklarda kredit/depozit nisbati 187% ni tashkil etib, depozit bazasiga nisbatan kreditlash yuqori ekanini ko‘rsatadi.

Alohida banklar kesimida:

- Agrobank (248%) va O‘zmilliybank (202%) da kredit yuklamasi juda yuqori
- Mikrokreditbank (205%) ham yuqori kreditlash faolligini ko‘rsatmoqda

- Xalq banki (126%) va Aloqa bank (130%) da ko‘rsatkichlar nisbatan muvozanatli

Boshqa (xususiy va kichik) banklarda esa kredit/depozit nisbati 98% bo‘lib, bu ularning resurslardan ehtiyotkorroq foydalanayotganini bildiradi.

XULOSA

O‘zbekiston bank tizimida so‘nggi yillarda barqaror o‘sish va ijobiy dinamik o‘zgarishlar kuzatilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma’lumotlariga ko‘ra, inflyatsiya darajasi 2024–2026-yillar davomida umumiy pasayish tendensiyasiga ega bo‘lib, narxlar barqarorlashuvi ta’minlanmoqda. Shu bilan birga, depozit foiz stavkalari ham pasayib, bank tizimida resurslar qiymati kamaygan. Bu esa pul-kredit siyosatining samaradorligini aks ettiradi.Bank tizimi moliyaviy natijalari tahlili natijasida foizli va foizsiz daromadlarning oshgani, sof foydaning 3 419 mlrd so‘mdan 5 524 mlrd so‘mga yetgani aniqlanib, banklar daromadliligi sezilarli darajada yaxshilangani kuzatildi.Shuningdek, bank tizimida kredit qo‘yilmalarining depozitlarga nisbati 144% ni tashkil etib, kreditlash faolligining yuqori ekanini ko‘rsatadi. Ayrim banklarda ushbu ko‘rsatkich 200% dan yuqori bo‘lib, bu kredit siyosatining faol olib borilayotganini bildiradi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI.

1. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Pul-kredit siyosati sharhlari va statistik byulletenlar. – Toshkent, 2024–2026.
2. World Bank. (2024). Uzbekistan Capital Markets Development Report. Washington, D.C.: World Bank Group.
3. Xalqaro Valyuta Jamg‘armasi. Uzbekistan Country Report. – 2023–2024.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi. PF-5992-son Farmon. “2020–2025-yillarga mo‘ljallangan bank tizimini isloh qilish strategiyasi”. – 2020-yil 12-may.

5. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. *Rasmiy statistik to‘plamlar*. – 2024–2026

6. Xalqaro Moliya Korporatsiyasi (IFC). (2024). Capital market development strategies for Uzbekistan. Washington, D.C.: IFC.